

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:12 (67177)
2018-yil 19-mart

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

SABOLARNI O'YNATIB, NAVRO'Z KELDI YURTIMGA!

Nihollarni uyg'otib,
Ezgu hislar uyg'otib,
Sabolarni uyg'otib,
Navro'z keldi yurtimga!

Turnalar aylar parvoz,
Tirik jon topar e'zoz,
Borliqqa berib pardoz,
Navro'z keldi yurtimga!

Quyosh chiqdi charaqlab,
Yil kitobin varaqlab,
Yomg'irdan so'ng yaraqlab,
Navro'z keldi yurtimga!

Shohruh QODIROV,
Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanidagi
22-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi



Bu kun teng kelmishdir yer bilan samo,
Bir-birini qo'llab, o'ylab, g'amin yeb.
Bobolar qadimda qilishar duo:
Iloho, har kuning Navro'z bo'lsin, deb.
Abdulla ORIPOV

Har yili 8- mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida yurtimizning eng bilimli, iqtidorli, intiluvchan, izlanuvchan qizlariga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti topshirilishi yaxshi an'anaga aylangan.

ALLA TINGLAB YIG'LAGAN QIZALOQ



- Davlatimizning bu yuksak mukofotini shaxsan Yurtboshimizning qo'llaridan qabul qilib olganimdan behad mamnunman, - deydi Inoyatxon quvonchdan ko'zlarini porlab. - Bu damlarning hayajonini bir umr unutmam kerak...

Avvalgi yillardan farqli o'laroq bu yil Prezidentimiz Farmoniga binoan o'n to'rt yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan qizlarimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'lishdi. Ular orasida V. A. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyi o'quvchisi Inoyatxon Abdullayeva Bunyod qizi ham bor.

Yurtimizning barcha qizlari qo'lga kiritishni orzu qiladigan, intiladigan bu nufuzli mukofotga Inoyatxon san'at sohasida erishgan ulkan muvaffaqiyatlari evaziga sazovor bo'ldi. San'atkorlar sulolasidan bo'lgan Inoyatxondagi musiqaga bo'lgan ishtiyiqi onasi Gulshanyo opa juda erta, u 3-4 yoshli qizaloqlik davridayoq payqagandi.

- Odatda bolalar «Alla» qo'shig'ini tinglab, rohatlanib uxlashadi, orom olishadi, - deydi Gulshanyo opa Inoyatxonning bolaligini xotirlab. - Mening qizim esa «Alla» ayta boshlashim hamonoq qo'shiq kuyiga hamohang tebranib, ko'zlariga yosh olardi. Uning bu holatidan yurak-bag'rim ezilib ketardi. Keyin-keyin unga «Alla» aytmay qo'yganim... Fortepianoda kuy chalsam, xuddi sehrlangandek yonimdan jilmasdi. O'shandayoq uning musiqiy qobiliyati borligini sezganman. Mutaxassislarining ham bu boradagi fikrlarini bilish maqsadida 6 yoshli qizalog'imni V. A. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyiga yetaklab borganman. Uni imtihondan o'tkazgan o'qituvchi Inoyatxonni litseydagi eng talabchan ustozlardan biri - O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Alla Antonovna Kimning qo'lga topshirgan. «O'ta talabchan ustoz ekan. Qizimni qattiqroq koyib qo'ysa, musiqaga, san'atga bo'lgan ishtiyiqi so'nib qolmasmikin», degan xavotir kechgandi ko'nglimdan. Xavotirim o'rinsiz ekan, Alla Antonovna birinchi kundanoq qizim bilan til topishib oldi, u bilan xuddi tengdoshidek muloqotga kirishib ketdi. Inoyatxonning bugungi yutuqlarida ustozlari Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Alla Antonovnaning, shuningdek, litseydagi barcha ustozlarining xizmatlari beqiyos...

Inson borki, mehrdan, e'tibordan ruhlanadi,

ochilmagan qirralari ochiladi. Ustozining mehr bilan bergan saboqlari Inoyatxonning iqtidorini sayqalladi, noyob iste'dodi litsey, shahar, respublika miqyosidagi tanlovlarda charxladi. 2009-yili «San'at g'unchalari» respublika tanlovida ilk bor ishtirok etib, 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

San'atni o'ziga chinakam taqdir bilgan yoshlarda bir fazilat bo'rtib ko'rinadi: ular ma'lum darajadagi muvaffaqiyatlarga erishgach, xalqaro maydonlarga intiladilar.

Inoyatxon ham 2009-yilning iyul oyida Italiyada bo'lib o'tgan «Djuzeppe Terachiano» xalqaro pianinotchilar tanlovida 1-o'rinni sohibasi bo'lib, xalqaro miqyosdagi ilk muvaffaqiyati nashidasini surdi. Keyinchalik Ukrainada o'tkazilgan «Indivudualis» nomli VII xalqaro mustaqil musiqiy tanlov sovrindori (2-o'rin), Estoniyaning Narva shahrida bo'lib

o'tgan F. Shopen nomidagi xalqaro pianinotchilar tanlovi g'olibi (2-o'rin), Chexiyada o'tgan «Vertuosi per musica dipianoforte» xalqaro pianinotchilar tanlovi diplomanti bo'ldi.

Yosh iste'dod sohibasi sifatida turli yillarda bir necha bor simfonik orkestr bilan yakkaxon sifatida konsertlar berdi.

Poytaxt va tuman bolalar musiqa maktablarida o'tkaziladigan konsertlar, davlat muzeylari va elchixonalar tashabbusi bilan uyushtiriladigan kechalardagi ishtiroki iqtidorli sozanda uchun mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

Inoyatxon Abdullayeva Bunyod qizi! Nihoyat uning ismi-sharifi ham Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlari ro'yxatida o'qildi. Tinimsiz mashqlari, izlanishlari, haqqoniy erishgan muvaffaqiyatlari evaziga berilgan bu nufuzli mukofot Inoyatxon uchun juda aziz, qadri. Uning zimmasiga yuklanadigan mas'uliyat ham zalvorli.

Inoyatxonning Zulfiyaxonimga munosib izdosh bo'lishiga tilakdoshmiz.

Feruza JALILOVA

ONAXONLAR SUMALAK BILAN SIYLADI

Respublikamiz umumta'lim maktablarida bahoriy ko'tarinki ruhda tashkil-lashtirilayotgan tadbirlar davom etmoqda.

Buxoro tumanidagi 9-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan Navro'z bayramiga tumandagi keksa onaxonlar taklif etildi. Zulfiyaxonim izdoshlari bo'lgan

ahil-inoq ta'lim-tarbiya olmoqda. Maktabga qachon yo'lingiz tushsa, biror tadbirning ustidan chiqasiz. Bu esa yurtimiz tinchligi, ta'lim maskanlari obodligidan darak beradi.

Darhaqiqat, tinch yurtga bayramlar yarasadi.

qizlar munis ayollar, mehridaryo onalar va Navro'zni madh etuvchi she'rardan mushoirani boshlab yubordi. Shuningdek, maktab Yoshlar ittifoqi qoshida tashkil etilgan «Iste'dodli yoshlar» to'garagi a'zolari Said Ahmadning «Kelinlar qo'zg'oloni» dramasi asosida sahnalashtirgan teatr tomoshasini namoyish etishdi. Ayniqsa, Sarvinov Ro'ziyeva ijrosidagi Farmonbibi, Munisa Valiyevaning Sotti, Mehrbonu Xudoyqulovanning Lutfi, Jahongir Toshpo'latov ijrosidagi To'xta ro'li mehmonlarga haqiqiy bayram kayfiyati ulashdi.

- Mana shunday ajoyib bayram tadbirini tashkillashtirgan maktab rahbariyati hamda oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnoz Ramazonova, Yoshlar ittifoqi yetakchisi Shahriniso Shamsiyevaga tashakkur, - deydi nuroniy onaxonlar Toshbibi To'rayeva va Bahriya Ergasheva. - Ko'pmillatli o'quvchilari bilan viloyatda o'z o'miga ega bo'lgan ushbu maktabda barcha yigit-qiz



Tadbir so'nggida onaxonlar Navro'z bayramiga atab o'zlarini tayyorlagan sumalak bilan barchani siyladi.



Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim maktabining 2-«E» sinf o'quvchilari sinf rahbari Lyashenko Lyubov Nikolayevna boshchiligida o'tkazgan bayram tadbiridan lavhalar.



TOJIKISTONGA TO'YGA BORAMAN

Ota-onam asli Tojikistonning Istaravshan tumanidagi Nijonni qishlog'idan. Dadam O'zbekistonga oilaviy ko'chib kelganlariga 30 yildan oshdi. Onam bo'lsa, 1993-yilda kelin bo'lib tushgan ekan.



Go'dakligimdan onajonimning qarindoshlarini sog'inib, ularga intiq bo'lishini ko'rib ulg'aydim. Ikki davlat chegarasidagi o'tkazish punktlaridagi noqulayliklar sabab, onam tug'ilgan qishlog'iga istagan vaqtda borolmasdi.

Prezidentimizning Tojikistonga tashrif doirasida ikki davlat o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilgani barcha qatori bizning oilamizga ham quvonchli xabar bo'ldi. Ushbu xayrli safar chog'ida ikki qardosh mamlakat fuqarolarining o'zaro kelib-ketishlari to'g'risida hukumatlararo bitim imzolandi. Endilikda O'zbekiston va Tojikiston fuqarolari 30 kungacha vizasiz o'zaro safar qilish imkoniga ega.

Shu kunga qadar Tojikistondagi bobombuvim, tog'alarim va xolalarimning uylari, hatto jiyanlarimni ham ko'rmaganman. Tog'am o'g'illariga to'y boshlabdi. Nasib bo'lsa, yozgi ta'tilda ota-onam bilan birga men ham to'yga boraman.

Alisher NAIMJONOV,

Sirdaryo tumanidagi 21-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'quvchisi

TA'TIL BUXORODA O'TMOQDA

Otamning xizmat vazifalari tufayli poytaxtga ko'chib kelganmiz. Ammo bayramlarni buvim va buvinlar bilan birga nishonlashni, tez-tez Buxoroga borishni yaxshi ko'raman.

Yurtboshimiz tomonidan Navro'z bayrami kunlari besh kun dam olishga doir qabul qilingan Farmoni orzularim ushulishiga sabab bo'ldi. Ushbu ayyomni o'zim tug'ilib o'sgan Buxoroi sharifda o'tkazadigan bo'ldim. Ayniqsa, u yerga poyezdda borish menga zavq bag'ishlaydi. Dam olish kunlari yo'l chiptalari imtiyozli narxda sotilishi dadamni yanada xursand qildi.

Shunday qilib, biz ukam bilan poyezdning oynasidan atrofni tomosha qilib ketdik. Keng dala va qirlardagi lolalar, gullagan daraxtlardan zavqlanib, vaqt o'tganini ham sezmay qoldik. Buxoroda esa har bir kunimiz maroqli o'tmoqda. Jiyanlarim bilan o'ynab, she'rlar aytdik. Ertasi kuni amakimning tashabbusi bilan G'ijduvon shahridagi Abdulxoliq G'ijduvoniy ziyoratgohiga sayohatga bordik. Ziyoratimiz davomida G'ijduvoniy hazratlari Buxoroning buyuk yetti pirlaridan biri ekanligi to'g'risida bilib oldim. Ta'til tugagach, bu yerda ko'rgan va eshitganlarimni sinfdoshlarim va ustozimga ham so'zlab beraman.

Zilola TO'RAYEVA,

Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 64-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi

Qozog'istonda O'zbekiston yili doirasida o'tkazilayotgan madaniy-rifitay tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar ikki qardosh xalq o'rtasidagi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

GO'ZAL YURTDA YASHAYOTGANIMDAN FAXRLANAMAN,

- deydi Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 3-umumta'lim maktabi direktori Dana JUMASHEVA.



Har yili yozgi ta'tilda yaqin qarindoshlarimni ziyorat qilish maqsadida Qozog'istonga boraman. Ular bilan qozoq tilida so'zlashsam-da, meni «o'zbek» deb chaqirishadi. O'zbekistonda tug'ilib, shu diyorda kamol topganim bo'is, so'zlashuvda o'zbek tilidagi so'zlarni ko'p ishlataman. Hatto tabiatimdagi bosiqlik, samimiyatni ham o'zbek xalqidan ekanligini e'tirof etishadi. Bilasizmi, shu paytda qalbimni faxr tuyg'usi chulg'ab oladi. Shunday go'zal yurtda, mehr-oqibatli odamlar orasi-

da yashayotganim uchun Yaratganga shukronalar aytaman. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 15-mart kuni Ostonada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etishi ayni muddao bo'ldi. Yig'ilishda mintaqaviy hamkorlikda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish istiqbollari muhokama etildi.

Toshkent-Chimkent avtobus qatnovining yo'lga qo'yilishi orqali ikki davlat fuqarolarining qardoshlik munosabatlari yuksalib, savdo-sotiq, tovar ayirboshlash yo'nalishida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Ostona uchrashuvi mamlakatimizning xalqaro tashabbuslarini amaliy jihatdan hayotga tatbiq etish va mintaqada o'zaro manfaatli hamkorlikning dolzarb masalalarini konstruktiv muhokama qilishdagi muhim qadam bo'lishi, shubhasiz.

libos tiktirishga, sochlarini qirg' kokil qilib o'rishga tushadi. Ammajon-u xolalarimizni aytmaymizmi?! Qoshlariga o'smani tortib, shifobaxsh dori-darmon bo'lgan ismaloqdan somsa, chuchvara singari milliy taomlarimizni tayyorlaydi. Sezib turganingizdek, bu sa'y-harakatlarning bari bahor tufayli. Axir yangi yil, yangi kun yaqinlashmoqda. Navro'z - umumxalq bayrami, kun va tun tenglashgan fursat. Biz intiqlik bilan kutayotgan bu yilgi ayyom avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Buni mamlakatimizda kezib yurgan bayram shukuhidan ham sezish mumkin.

EZGULIK ELCHISI

Mart oyining ilk kunlaridanoq insonlar kayfiyatida o'zgacha ko'tarinkilik, tabiatdan mamnunlik hissi jo'sh uradi.

libos tiktirishga, sochlarini qirg' kokil qilib o'rishga tushadi. Ammajon-u xolalarimizni aytmaymizmi?! Qoshlariga o'smani tortib, shifobaxsh dori-darmon bo'lgan ismaloqdan somsa, chuchvara singari milliy taomlarimizni tayyorlaydi. Sezib turganingizdek, bu sa'y-harakatlarning bari bahor tufayli. Axir yangi yil, yangi kun yaqinlashmoqda. Navro'z - umumxalq bayrami, kun va tun tenglashgan fursat. Biz intiqlik bilan kutayotgan bu yilgi ayyom avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Buni mamlakatimizda kezib yurgan bayram shukuhidan ham sezish mumkin.

Maktabimizda har yili Navro'z sayli yuqori kayfiyatda o'tkaziladi. Jumladan, bizning 9-«Y» sinf ham

bayramga o'zgacha tayyorlandi. Sinf rahbarimiz Feruza Bozorova bilan maslahatlashib, tadbirda ajoyib sahna ko'rinishlarini namoyish etdik. Qolaversa, bu yilgi bahoriy saylimizda O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda «Kamalak» bolalar tashkiloti maktab sardorlari o'zlarining yangi loyiha va tashabbuslari bilan ishtirok etdi. Xulosa qilib aytganda, maktabimizdagi Navro'z sayli ustozlarimiz va o'quvchilarda olam-olam taasurot qoldirdi.

Aziza AKTAMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi davlat 1-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 9-«Y» sinf o'quvchisi

SHUNDAY TELEDASTURLAR DOIM BO'LSAYDI...



Yaqinda oinayi jahon orqali efigra uzatilgan «Yosh kitobxon» teletanlovini barcha yoshlar katta qiziqish bilan kuzatib bordi.

Bellashuvlarda ishtirok etgan tengdoshlarimizning kitobsevarligi, o'tkir zehni-yu hozirjavobligini ko'rib, ularga rosa havasimiz keldi. E'tiborlisi, maktabimiz o'quvchilarida ham kelajakda mazkur tanlovda ishtirok etish istagi uyg'ondi.

Sinfoshlarim orasida mutolaani uncha xushlamaydigan Sardor va Abdusamad ham ushbu teledasturdan keyin kitob o'qishga qiziqib qoldi. Ko'rsatuvda ishtirok etgan har bir kitobxon barchamiz uchun qahramonga aylanib ulgurdi. Jumladan, sinfdoshlarimizdan Asadbek buxorolik Nodir Murodillayevga havas qilsa, Dilshod qashqadaryolik Doston Hamidovga, Muslima esa Mohiniso Shomurodova kabi kuchli bilim sohibasi bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Darhaqiqat, «Yosh kitobxon» teledasturi qisqa vaqt ichida yurtimizning barcha yoshlari qalbidan chuqur joy egalladi.

Xulosa qilib aytganda, kitobxonlikni targ'ib qiluvchi bu kabi ko'rsatuvlar sonini yanada ko'paytirish, bilimga chanqoq yoshlarga e'tibor qaratish va ularni rag'batlantirib borish lozim. Negaki, kitob ziyosi, mo'jizasi barcha yoshlarimizni faqat va faqat ezgu maqsadlar sari undaydi.

Otabek ORTIQOV,
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 169-umumta'lim maktabining 8-«A» 9- sinf o'quvchisi

Bir yangi kun keldi, topolmadim so'z,
Qalbm daftarini ming bor izladim.
Yurgan yo'llarimga gul sochdi Navro'z,
Shodlikdan gullarni quchib yig'ladim.
AXTAMQULI

Tong
yulduzi

MILLIY AN'ANALAR RUHIDA

Bahor kelishi bilan Namangan shahridagi 43-umumta'lim maktabi chinakam ma'noda ma'naviy tadbirlar go'shasiga aylandi.

Ta'lim maskanining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mahbubaxon Inomova tomonidan tashkil etilgan tadbir «Jannatim – onam» deb nomlandi. Kechada maktabning 3-«K» sinf o'quvchilari faol ishtirok etdi. Tadbir o'quvchilarning bahorni madh etuvchi she'r, qo'shiq va teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari bilan yanada fayzli o'tdi.

Ayniqsa, onalarga, ayollarga bag'ishlangan she'r va monologlar yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldi.

Shundan keyin maktabning 9-sinf qizlari o'rtasida «Xush kelibsan, azizim bahor» nomli ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar o'zlarining zukkoligi, intiluvchanligi, pazanda-yu chevarligi bilan yig'ilganlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

«Bayramlar bayramga ulansin», deydi dono momolarimiz. Shu ma'noda maktabning 10-sinf o'quvchilari osh tanlovida ishtirok etdi. Bellashuvda «Sharshara» MFY raisi hamda mahallaning bir qator faol oqsoqollari ishtirok etib, o'quvchilarning pazandalik mahoratini baholab bordi. Tanlovda o'quvchilar mehmondo'stlik, keksalarni e'zozlash va yoshlarni izzatlash kabi o'zbek xalqining ming yillik an'analarni amalda namoyon etdi.

Bundan tashqari, maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari – Shohida Nishonova, Akmal Fozilov, Mahfuza Parpiyeva, Zarnigor Sotimova, Go'zal Alixonova, Shahnoza Boymirzayeva, Charos Rizayeva, Ra'noxon Komilovalar «Bir o'quvchiga bir kitob» loyihasi asosida davra suhbatlari, «Zakovat» intellektual o'yinlari tashkil etishdi.

– Bu kabi xayrli ishlar, – deydi maktab direktori Muqaddas Qambarova, – avvalo, o'quvchilarni milliy va umuminsoniy ruhda tarbiyalashning samarali yo'li hisoblangan, ikkinchidan ularning iqtidorini namoyon etish uchun imkoniyat hamdir.

Aytish mumkinki, bu kabi tadbirlar millatimiz ma'naviyatiga tutilgan ko'zgu. Bu ko'zgu esa hamisha go'zallik, insoniylik va mehr-muhabbatni aks ettiraveradi.

Xurshida NISHONOVA,
Namangan shahridagi 43-umumta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Har qanday davlatning kelajagi, bashariyat tarixida tutgan o'rni va mavqei bevosita voyaga yetayotgan farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligi bilan o'lchanadi.

ENG FAOL KITOBXON

Bolalarni erkin fikrlashga, mustaqil bo'lishga o'rgatish, ularning dunyoqarashini shakllantirish, yaratuvchanlik, bilimdonlik kabi fazilatlarini kamol toptirishda kitoblarning tutgan o'rni beqiyos. Prezidentimizning «Kitob mahsulotlarini nashr

etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha ta'lim

muassasalari kutubxonalarida turli davra suhbatlari, adiblar bilan uchrashuvlar, bellashuvlar, kitoblar taqdimoti o'tkazilmoqda.

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 28-umumta'lim maktabida

3-sinflar o'rtasida «Kitobim – oftobim» kechasi tashkilatildi. Tadbirda maktab rahbari Malika Azimova so'zga chiqib, kitob o'qish madaniyati, kitob tanlash mahorati, mutolaa san'ati xususida to'xtalib o'tdi.

O'quvchilar ijrosidagi topishmoqlar tanlovi barchani lol qoldirdi. Kechada 3-«B» sinf o'quvchilari «Donishmand bobo» timsolini yaratdilar. Jajji donishmand tengdoshlariga kitobning barcha moddiy va ma'naviy boyliklardan ustun ekanligi haqida rivoyat so'zlab berdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

YANGILANISH BAYRAMI

Navro'zni kattalar qatori o'quvchi-yoshlar ham zavq-shavq bilan kutib olmoqda.

Bayram arafasida o'tkazilgan umumxalq hasharida Marg'ilon shahridagi 25-umumta'lim maktabining o'qituvchi-yu o'quvchilari obodonchilik, ko'kalamzorlashtirish ishlarida faol qatnashib, maktab hovlisi va atrofini tartibga keltirdi. Sport maydonchasi esa yangidan ta'mirlandi.

Maktab hududidagi keng maydonchada ustoz-u o'quvchilar xalqimizning azaliy bayrami bo'lmish Navro'zi olamni zo'r shodiyona bilan nishonladi. Tantanada o'quv dargohining musiqa fani o'qituvchisi Hilola Sultonova rahbarligidagi «Binafsha» bolalar ashula va raqs dastasi tomonidan «Navro'z ayyomingiz muborak bo'lsin!» deb nomlangan bayram dasturi namoyish etildi.

Tadbirda eng faol, a'lochi o'quvchilar maktab rahbari Munavvarxon Mahkamova tomonidan faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlandi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

Ayozli sovuq kunlardan xira tortgan ko'nglimizni ma'suma bahor xush kayfiyati ila tozalaydi. Borliqdagi yangilanish, yoqimli harorat barchamizni xushnud etadi. Hayot o'z jozibasini namoyon qiladi. Aziz diyorumiz yanada gullab-yashnaydi, qadrdon yurtdoshlarimiz shijoati jo'sh uradi.

NAVRO'ZI OLAM MUBORAK!

Go'zal faslga yarashadigan go'zal ayyom – Navro'z bizni mehr va oqibat bilan bir butun qiladi. Yasharish va yangilanish faslida barcha bir-biriga omonlik, qut-baraka, abadiy tinchlik, farzandlar kamolini tilaydi. Shu tobda siz ham farahbaxsh tuyg'ular ichida qolasiz. Bahorning go'zal ranglarini, saslarini, hayotni his qila boshlaysiz. Qalblaringiz

mehrga to'ladi.

Bunday maftunkor ayyomni barchamiz ko'tarinki ruhda nishonlaymiz. Navro'z – sharqona yangi yil bayrami. Bu kunda butun olam va odam yangilanib, atrofga o'zgacha ko'z bilan qaraydi.

Bizning maktabda o'tkazilgan har galgi bayram tadbirida har bir qatnashchining dillari sevinchdan yayradi. O'quvchilar milliy qo'shiqlar, laparlari, askiyalar, mushoira va raqslari bilan barchani xushnud etdi.

Bayram barchada olam-olam taassurot qoldirdi.

Muhayyo G'OFUROVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi
40-DIMIning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

DILDAGI SO'Z

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining fidoyi xodimlari!

Sizlarni yangilanish, uyg'onish, yasharish bayrami – Navro'z ayyomi bilan chin yurakdan muborakbod etaman. Aynan Navro'z bahorning barcha go'zalligi, tarovati va shukuhini o'zida mujassam etadi. Ushbu kunda odamlar bir-biriga ezgu tilaklar tilaydi, borliq insonlarga ruhan va jismonan kuch bag'ishlaydi.

Oilada biz farzandlar «Tong yulduzi» gazetasini o'qib ulg'ayganmiz. Yurtimizdagi ko'plab o'quvchilarning sevimli nashri bo'lgan ushbu gazeta qanchadan qancha yosh ijodkorlarning izlanishlarini yuzaga chiqarmoqda, ularni qo'llab-quvvatlamogda. Gazeta xodimlari tahririyatga kelayotgan har bir maktubni bee'tibor qoldirmasliklarga yuborgan ijod namunalarni chop etilganida bir necha bor guvoh bo'lganman. Yosh avlodning yuksak ma'naviyati, e'tiqodi mustahkam bo'lib kamol topishiga munosib hissa qo'shayotgan gazeta xodimlariga ijodiy zafarlar tilayman!

Sarvinov MAMANOVA,
Jizzax viloyati, «Kelajak bunyodkori» gazetasi muxbiri



Tadbir so'nggida 3-«B» sinf o'quvchisi Muxsinaxon Xo'jayeva «Eng faol kitobxon» nominatsiyasi g'olibasi deb e'lon qilindi.

ME'MOR QUSH

Tongni, quyosh chiqishini kuylaydigan qushlar juda ko'p. Ammo qaldirg'och ularning eng ardoqlisi. Bizda hech kim qaldirg'ochga tosh otmaydi, uni quvib haydamaydi. Hatto eng bezori bola ham bu yomon ishdan tiyiladi. Qaldirg'ochning uyingizga kelishini qutlug' tashrif deb qabul qilishingiz mumkin.

Ana, u uy peshtoqiga qo'ndi, g'ujur-g'ujur qilganча sayrab yubordi. Keyin ayvon bo'ylab uchib qanot yozdi va derazaning kichkinagina tuynugidan kirib, xona ichini ko'zdan kechirib chiqdi. Xonadon egalari o'tirgan joyning yaqiniga qo'nib, timqora ko'zlari bilan ularga bir-bir qarab oldi. Xonadon egalari esa nafaslarini ichga yutib, qimirlashga ham istihola qilganча uni kuzatib turishibdi.

«Qani edi uyimizga in qursa!..» Hammaning ko'nglida ana shunday istak bor. Qaldirg'och uchib ketdi va birozdan keyin jufti bilan qaytib keldi. Ular yana xonadonni «razvedka» qilishdi. Ham-

masi ma'qul. Yaxshi xonadon, tabiatni sevadigan insofli, diyonatli odamlar... Qaldirg'ochlar ayvon burchagidan bir joyni tanlab, in qura boshlashdi.

Bu juda ajoyib jarayon. Qaldirg'ochlarni eng mohir me'morlar, desak, yanglishmaymiz. Ular qop-qora tumshuqchalarida loy olib kelishadi, uni me'yoriga keltirishadi va xuddi g'isht qalagan-day chiroyli, bir tekis qilib in quradi. In qurishda eng mahoratlisi tog' qaldirg'ochlari hisoblanadi. Ular «uy» to'rini kengroq olib, in og'ziga tomon kichraytirib kelishadi. Tog' qaldirg'ochlarining ini devorga yopishtirib qo'yilgan ko'zachani eslatadi.

Tabiat bu ajoyib parrandalarga ko'plab yaxshi fazilatlar ato etgan: ko'rinishi chiroyli, qanot-patlari silliq, oq-qora ranglar uyg'unlashib ketgan. Ayrimlari «qizil ro'moli»ni tomoq boshi qilib o'rab olgan. Qaldirg'ochlar eng tezuchar qushlardan. Bog'larga, polizlarga ziyon yetkazmaydi, aksincha, ularni zararkunanda hasharotlardan muhofaza qiladi. Shunday bo'lgach, xonadon egalari uylarida bu jonivorning in qurayotganidan o'zlarida yo'q shod. Qaldirg'och esa tom bo'gotiga qo'nganча chiroyli sayrayapti.

Ne'mat ARSLON

Lesson 12

THE EASTERN NEW YEAR (Sharqona yangi yil)

Open the brackets with English translation

One of the national holiday is Navruz. A week before the holiday people clean their houses (va) yards. Also they celebrate this day with flowers and singing songs, dancing (shuningdek) cooking (milliy) dishes such as sumalak. Whole day women and girls prepare sumalak. For cooking sumalak we need (bug'doy), oil, and some water also (toshlar) or nuts. (Odatda) it makes the (kun bo'yi).



Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

WHAT DO YOU KNOW ABOUT SUMALAK?

Navruz is one of the most treasured holiday in Uzbekistan. Sumalak is the most famous dish of spring which made from germinated grains, flour and stirred for a whole day by the women of the neighbor. Sumalak is cooked slowly on a wood fired, sometimes with the addition of spices.



Sprouted grain is a symbol of life, heat, abundance and health. The following are traditions and superstitions concerning sumalak. There are

several superstitions are given below.

1. Prayers are offered to the seven stones which are placed in the sumalak, and agitated to keep it from burning.
2. Sumalak is offered to brides and girls.
3. While mixing sumalak people may wish and their desires will be realized.

From internet materials Sarvinoz NAZAROVA, the pupil of lyceum under Uzbek State World Languages University

WHO IS NIMBLE?

How many sentences can you write?

men and day will be
prepare national in the night
equal holiday
while women my is
dishes sumalak we favorite

NAVRUZ

Navruz is a national holiday



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

LET'S DETERMINE THE TENSE

Present	Past	Future
cook	cooked	will cook
		will run
	bought	
answer		
hearten		
		will fade
split		
	roused	

Dinora ABDULLAJONOVA

EVERYDAY ENGLISH

In English	In Uzbek	In English	In Uzbek
What's up	Nima bo'ldi?	Bliss	Katta quvonch
Share it	Baham ko'rmoq	Rush	Shoshmoq, bosim
Paynet	Internet orqali to'lamoq. Pay-to'lamoq. Net-internet	Nuts	Yong'oqlar
Market	Bozor	Smile	Kulmoq
Next	Keyingisi	Sunday	Yakshanba
Deny	Inkor qilmoq	Messenger	Xabarchi
Fast food	Tezpushar ovqat	Spark	Uchqun
Bounty	Saxiylik	Delete	O'chirmoq

Ma'mura G'ULOMOVA

G'uv-g'uv shamol ovozi –
Bahorning cholg'u, sozi.
Bulut g'amni yo'q etdi,
Ko'ngilga shodlik yetdi.

ELBEK

Onamning yaxshi bir odati bor. Har kuni sinfimizda nima voqealar bo'lgani, fanlardan necha baho olganim haqida so'raydi.

Tong yulduzi

AKS SADO

ERKIN BOBOMGA MAKTUB



Erkin bobo bilan istirohat bog'idagi «Kitob bayrami»da suratga ham tushib olgandim.

Shunday suhbatlarimizning birida sinfimizdagi to'polonchi Behzodning sho'xliklari haqida arz qildim. To'g'ri-da, u har kuni qitmirlilik qilib, bolalarning joniga tegadi. Shunda onam sabrli bo'lishimni, sinfdoshimga yaxshi yo'l bilan ta'sir o'tkazish mumkinligini aytdi. So'ng, doim o'qib yuradigan gazetam – «Tong yulduzi»ning yangi sonini uzatdi. Gazetada sevimli yozuvchimiz Erkin Malikning «Nabiramga maktublar» asarining «Safardagi yo'lovchi» qismini katta qiziqish bilan o'qidim. Unda Erkin boboning bizlarga «Aziz nabiram» deya murojaat qilishlari juda yoqdi. Xuddi o'z bobojonim bilan suhbatlashayotgandek bo'ldim. Ular partadosh-u sinfdoshlarni ilm yo'lida safarga chiqqan qayiqdagi safardoshlarga o'xshatadi.

So'ng, «Safardoshni yo'lida almashtirib bo'lmaydi», deya ta'kidlab, bir rivoyatni keltiradi. Xullas, o'qiganlarim menga ijobiy ta'sir qildi. Behzodning ishlariga e'tibor bermay, sabr qilishga odatlandim. Ammo onam ushbu asarni o'sha sinfdoshim ham o'qishi kerakligini aytdilar. Gazetani o'qigach, to'polonchi sinfdoshim yaxshi tomonga o'zgardi. U yana gazeta olib kelishimni aytdi. Oxirgi o'qiganim – «Suyanchiq» nomli maktub ham menga juda ma'qul bo'ldi. Chunki mening ham kichik singlim bor. Doimo uni himoya qilishga, ota-onamga suyanchiq bo'lishga harakat qilaman.

Erkin bobomning maslahat-u nasihatlariga rioya qilishga so'z beraman.

Asilxo'ja QODIROV,

Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi
226-umumta'lim maktabining 2-«B» sinf o'quvchisi

BIZLARNI QUTLASHGA KELDINGMI, BAHOR?!



Ko'klamdek chiroyli ko'ylaging kiyib, Maysazor oralab yeldingmi, bahor? Sog'ingan dillarga atringni sochib, Bizlarni qutlashga keldingmi, bahor? Saloming boychechak-lolaqizg'aldoq, Nafis iforingdan dillar yashnaydi. Kelishing sog'ingan bu ona tuproq, Yo'limga gul to'shab ko'nglim xushlaydi.

Maftuna MAHMUDJONOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 261-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

ALLOMALAR YURTI

Bilim olish bizlarga, Boqiy bo'lgan hamisha. Toshda o'yib yozilgan, Yozuvlar bunga guvoh.

Rasadxona qurdirib, Koinotni zabt etgan. Buyuk Ulug'bek bobo, Kitob qoldirib ketgan.

Ming shukurkim, o'zbegim, Istiqolga erishdi. Bobolarim kimligin, Dunyo ahli bilishdi.

Kumushoy TOLIBOYEVA,
Buxoro viloyati, Buxoro tumanidagi 23-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi

ONAJONLAR

Bahor keldi, onalar, Tabriklaymiz sizlarni. Qalbingiz bahor kabi, Ardoqlaysiz bizlarni.

Ulg'ayamiz kundan kun, Biz Vatan g'unchalari. Dunyo turguncha turing, Yurtim onajonlari!

Charos ABSAITOVA,
Toshkent shahar, Yashnobod tumanidagi 307-umumta'lim maktabining 2-«G» sinf o'quvchisi

«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Hamma gap senga qo'l telefoni olib berish kerakmi, yo'qmi degan gapdan boshlandi, nabiraginam. Bu kichkinagina oilaviy majlisimizda sen ishtirok etmasding.

Yaxshi o'qib turganda, bolani buzmaylik, dedi dadang.

Nima, telefonda o'yin o'ynab, qo'shiq eshitadimi, bo'lmaydi, dedi oying.

Meni bolam o'qishga vaqtida borib, vaqtida keladi, telefonda qayerda yuribsan, deb tergaydigan bolamas, deb buving ham qarshi bo'ldi.

Bunday qilamiz, dedim men, telefon oberamiz-da, sinaymiz, qani nima qilarkin? «Sinaymiz», deganim uchunmi, taklifim majlis ishtirokchilariga ma'qul tushdi. Nimagaki, bugun bo'lmasa, ertaga telefonga ishing tushishi bor-da.

Ana shunaqa, bolam, sen o'zing bilmagan holda katta sinov ichida qolgan eding. Esingdan chiqarma, bola zoti borki, kattalarning nazorati va sinovida bo'ladi. Kattalar tarbiyada nimani to'g'ri-yu, nimani noto'g'ri qilganini sizlardagi yaxshi yoki yomon o'zgarishlarga qarab bilib olishadi.

Shunday qilib, senga qo'l telefoni olib berdik. Uni ko'rib, juda xursand bo'lib ketding. Bunday tortiqqa ko'pdan orzemand ekaningni ko'zlarindan sezdim, bolam. Istihola qilib aytmay yurgan ekansan-da, aqligim. Xo'sh, natija nima bo'ldi? Biz kutgandan ham zo'r bo'ldi. Qara, qo'l telefonining shunaqa imkoniyatlari borligini bilmas ekanman. Sen uni menga qaytadan kashf et-

Erkin MALIK,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist



QO'L TELEFONI

ding. Maktabda o'tiladigan rus tili va ingliz tillarini yaxshi bilarding. Ammo oradan bir oy o'tar-o'tmas uchta til: xitoy, yapon, malay tillarida birdan o'ngacha sanashni o'rganibsan. Yana shu tillarda bobo, buvi, dada, oyi, uka, singil, dasturxon, choy, non, choynak, piyola, kitob va hafta kunlarini yodlabsan. Buning uchun telefoningga internetdan shu tillarning so'zlashgichini yuklab olibsan. Har kuni uchovidan bittadan so'zni o'rganishni oldingga qat'iy maqsad qilibsan. Yashavor, bolam. Bir qoyildan ming qoyil! Yoshsan-da, xotirang kuchli, har qanday, har qancha so'zni o'zida olib qola oladi. Yana xuddi toshga o'yilgandek.

O'ylab ko'r, bir yilda uch yuz-u oltmish kun bor-a.

Agarda shu jiddu jahd bilan o'sha chet tillarning har biridan uch yuz-u oltmishdan so'z o'rgansang bormi, o'h-ho'... eha... salkam olim bo'lib qolasan-a, bolajonim. Nimaga bizning yurtning bolalari chet ellarga borib, fan olimpiadalarida g'olib bo'lib kelyapti, desam, senga o'xshab telefonda til o'rganishar ekan-da. Voy baraka topkurlar-ey... Bundan chiqdi, bolalar telefonda faqat o'yin o'ynaydi, qo'shiq eshitishadi, degan gaplar unchalik ham to'g'ri emas ekan-da. Ishqilib shunday bo'lsin. Har bir yangilik ilimga, bolalarimizning qulfi dilini ochishga xizmat qilishini Yaratgandan so'rab qolaman...

(Davomi bor)

BUVIJONINGA

Buvijonim, qutlug' bo'lsin, Go'zal bahor bayramingiz. Qucho'ngiz gulga to'lsin, Zavqli o'tsin har damingiz.

Shodliklarga to'lsin qalbingiz, Bizga tengsiz mehr berdingiz. Biz ham sizga qaytarib mehr, Ko'rib yuring siz uzoq umr.

Ruxshona YO'LDOSHEVA,
Jizzax shahar Xalq ta'limi bo'limiga qarashli Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 7-sinf o'quvchisi



QISHLOG'IM



Shu go'shada tug'ilib o'sdim, Kindik qonim to'kilgan qishloq. Yangiobodga bir kelib ketding, Hayot qaynar, qaynaydi buloq.

Ayollari saharda turib, Hovlilarga sepishadi suv. Qizlaridir epchil-u chaqqon, Barisidir paridek suluv.

Yigitlari pahlavon, botir, Qo'llarida qirq hunar to'kis. Temur bobom hikmati dilda, Yaxshi kunni qilishadi his.

Ardoq etar hamisha Vatan, O'z bag'rida erkalar o'lkam. Yangiobodni maqtob tolmayman, Mahallalar obod-u ko'rkam.

Marhabo ORTIQXONOVA,
Namangan viloyati, Pop tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



Boychechaklar nish urib,
To turguncha o'rnidan,
Bahor qishni tamovga,
Osib qo'ydi burnidan.
Tursunboy ADASHBOYEV

TAEKVANDOCHILARIMIZ O'Z SO'ZINI AYTDI

Keyingi yillarda o'zbek taekvandochilari Osiyo va jahon chempionatlari va boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda. Bu esa mamlakatimizda bolalar sportiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor namunasidir.



Kuni kecha Gollandiyaning Eyndhoven shahrida taekvando bo'yicha kattalar va o'smirlar o'rtasida «45th Dutch Open Taekwondo Championships-G1» xalqaro turniri bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, ushbu nufuzli sport bayramida o'zbek dayan ustalari ajoyib natijalarni qayd etib, yurtimizga yorug' yuz bilan qaytib keldi. Sportchilarimiz turnirda 3 oltin, 4 kumush va 1 bronza medali jamg'arib, muxlis-u mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Jumladan, musobaqaning o'smirlar o'rtasidagi bahslarida Jasur Jaysunov, Ulug'bek Rashidov va Madina Mannopova o'z vazn toifalarida shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Shahzod Jo'rayev, Begzod Ibrohimov va Ozoda Sobirjonova finalga qadar bo'lgan yo'lni sharaf bilan bosib o'tib, yakunda kumush medal bilan taqdirlandi.

Shuningdek, kattalar o'rtasidagi bahslarda mahoratli atletimiz, jahon chempioni Dmitriy Shokin kumush, Bahrom Abdullayev esa bronza medalni yurtimiz g'aznasiga qo'shib qo'ydi.

S. TURSINOV

Sport insonni ham jismonan, ham ruhan tarbiyalaydi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, yoshlarni barkamol va yetuk shaxs qilib voyaga yetkazishda uning o'rni beqiyos. Shu bois, yurtimiz farzandlari orasida sportning barcha turlari ommalashib bormoqda.

SINFDOSSHIM BILAN FAXRLANAMAN

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 305-umumta'lim maktabi o'quvchisi Dilshod Aleuatdinov ham maktabimiz faxriga aylanib bormoqda. U 5 yoshidan taekvando va dzyudo, 10 yoshidan esa boks bilan shug'ullanadi. Yosh sportchi musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab, ustozlari va ota-onasini xursand qilib kelmoqda.

Dilshod 2017-yilning 15-20-may kunlari Bektemir tumanida sportning boks turi bo'yicha bo'lib o'tgan ochiq chempionatda 54 kg vaznlilar o'rtasida g'olib bo'ldi. Shu yili Islom Karimov xotirasiga bag'ishlab Sirdaryo viloyati, Yangiyer tumanidagi musobaqada esa 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Bunday iqtidorli, shijoatli tengdoshlarimiz kelajakda yurtimiz sha'nini yuqori cho'qqilarga ko'tarishiga ishonamiz.



Sarvinoz BERDIYEVA, poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 305-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

ENG YAXSHI SPORTCHI OILA

O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan «Sog'lom oila» shiori ostidagi sport musobaqalari yangi-yangi nomlarni kashf etmoqda.



Uchbu musobaqaning Toshkent shahar bosqichi ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Tuman bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan oilalar turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashdi.

Yakunda 1-o'rin Yashnobod tumanidan Nazarovlar va Xidirovlar oilasiga nasib etdi. Shayxontohur tumanidan Dalmurzayev va yashnobodlik Rustambekovlar oilasi 2-o'ringa loyiq topildi. 3-o'rinni yakkasaroylik Safinlar oilasi egalladi.

— Ota-onam uyda sport bilan shug'ullanishimiz uchun sharoit yaratib bergan.

2017-yil taekvando bo'yicha o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan turnirda birinchilikni egallaganman, — deydi Yashnobod tumanidagi 149-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchisi Kamronbek Rustambekov. — Dadam yong'in xavfsizligi xizmati xodimi bo'lib ishlaydi. Sirk tomoshalariga oilaviy tez-tez borib turamiz. Sirk artistlarining akrobatik chiqishlarini uyda mustaqil takrorlashga harakat qilaman.

G'oliblardan tashqari, faol ishtirokchilar «Eng chaqqon oila», «G'alabaga bo'lgan intilishi yuksak oila», «Faol ishtirok etgan oila» nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandi.

G'OLIBLIK SHUKUHI

O'zbekiston karate federatsiyasi, Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar Kengashi hamkorligida karate bo'yicha shahar ochiq chempionati o'tkazildi.

Musobaqa turi yosh toifalari bo'yicha tashkil etildi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar maxsus diplom, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Shukrulla G'ULOMOV



Shaxmat – aql gimnastikasi. Hozirda ushbu sport turi yoshlar orasida ommalashib bormoqda. Tengdoshingiz Umidjon Ismoilov ham 4 yildan buyon shaxmat bilan shug'ullanib keladi.

YOSH SHAXMATCHI



U hozir Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 67-umumta'lim maktabining 3-«A» sinfida tahsil olmoqda. Umidjon shu kunga qadar tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, 2017-yil «Konstitutsiya – baxtimiz qomusi» shiori ostida o'tkazilgan viloyat birinchiligida 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, umumta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan Respublika chempionatining viloyat bosqichida 3-o'rinni qo'lga kiritib, munosib taqdirlandi.

Umidjon maktabda hamma fanlardan a'lo baholarga o'qiydi. Ayniqsa, matematika fanini juda yaxshi ko'radi. O'rtoqlaridan sira yordamini ayamaydi.

Uning orzusi kelajakda Rustam Qosimjonov kabi yetuk shaxmat ustasi bo'lish. Biz ustozlar Umidjonning orzusiga yetishi uchun bor bilim va tajribamizni ayamaymiz.

Uning orzusi kelajakda Rustam Qosimjonov kabi yetuk shaxmat ustasi bo'lish. Biz ustozlar Umidjonning orzusiga yetishi uchun bor bilim va tajribamizni ayamaymiz.

Nigora USANOVA, Qarshi tumanidagi 67-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bahrom AKBAROV

XUSH KELIBSAN YURTIMGA, NAVRO'Z!

Ariqlar bo'yida yalpizlar,
Nozlanib atrofga qaraydi.
Boshini eggancha majnuntol,
Kumushrang sochlarin taraydi.

Samoni qurshagan varraklar,
Quvnashib qishni ham to'xtatar.
Ayozni yig'latgan boychechak,
Jilmayib zaminni uyg'otar.

Doshqozon ichida sumalak,
Biqirlab quvonchdan kuylaydi.
Tumalar arg'imchoq solishib,
Bulut-la sakrog'ich o'ynaydi.

Quyosh kular – zaminda bahor,
Dehqon sochar dalaga rizq-ro'z.
Qaldirg'ochlar qo'shig'in aytar,
Xush kelibsan yurtimga, NAVRO'Z!



NARGIZANING LOLASI

(Hikoya)

Bog'ning chekkasidagi lola guli ko'chada o'ynab yurgan qizaloqning e'tiborini o'ziga tortdi. U gulni uzib, oyisiga olib bordi.

– So'lib qolmasligi uchun suvga solib qo'y, – dedi Sitora opa.

Ertasi kuni Nargiza deraza tokchasidagi quyoshning zarrin nurlaridan bahra olib, yanoqlarini ochayotgan go'zal lolani ko'rib, o'zida yo'q xursand bo'ldi.

Lekin uning shodligi uzoqqa cho'zilmadi. Ke-chagina chiroyli ochilib, barchaga xush kayfiyat ulashgan lola bugun yuzidagi alvon yaproqlarini

suvga to'kayotgan edi. Qizaloqning gulga rahmi kelib, yig'lab yuborishiga oz qoldi. Nargiza «Gulimga nima qildi? Betob bo'lib qoldimikan? Balki o'zining tuprog'i, do'stlarini sog'ingandir? Yoki kimdir xafa qildimi?» deya uzoq o'yladi.

Nihoyat, ko'z yoshlarini artib, boshqa gul uz-maslikka qaror qildi.

Iqbolxon MUHAMMEDOVA,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
73-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

ko'klam

(Etyud)



Qahraton qishning sovug'i asta-sekinlik bilan o'z o'rnini bahorning iliq kunlariga bo'shatib bermoqda. Bahorning alvon bezaklari daraxtlarga chiroyli baxsh etayotir. Quyosh bulutlarning ortidan borliqqa iliq nurlarini sochmoqda. Toshday qotgan suvlar esa harorat nafasidan erib, manzil tomon oshiqmoqda. Shu tariqa ko'klam sehri atrofga go'zallik ulashayotir. Daraxt shoxlaridagi jajji, xushovoz qushlarning sehri kuylari mayin saboga yanada yoqimlilik baxsh etmoqda.

Yurtimga xush kelibsan, zumrad bahor!

Vazira MARDIYEVA,
Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi
filologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«BAHORIY AYYOM» KROSSVORDI

Bo'yiga: 1. Momaqaymoqning yana bir nomi. 8. Go'zallik. 9. Gulsevar hasharot. 15. Ko'klam elchisi, parranda. 16. Bolalarning bahorgi xalq o'yini. 17. O'simlikning bargga aylangan a'zosi. 18. Ta'mi nordon o'simlik. 19. Gulzor maskan. 22. Gullamaydigan meva. 27. Quyosh nuri. 30. Baland o'suvchi daraxt. 34. Qo'shiqqa aylangan bahor guli. 35. Navro'z taomi pishiriladigan anjom.

Eniga: 3. Muchal yili. 7. Ko'klam guli. 10. Ho'l meva. 24. Danakli meva.


Yoy bo'yicha: 1. Qush a'zosi. 2. Ertapishar meva. 4. Atrof-muhit, olam. 5. Sersoya daraxt.

Diagonal bo'yicha o'ngga: 6. Chavandozlik musobaqasi. 20. Sayroqi qush. 21. Barra ko'kat. 23. Uzum navi. 25. Qizil gul. 28. Ko'kat. 34. Mayda, past bo'yli daraxt.

Diagonal bo'yicha chapga: 6. Samodagi turfa rang. 23. Erta bahor chechagi. 26. Sitrus meva. 29. Yog'inga aylangan samodagi suv bug'i. 35. Ekinzor.

«Zanjir» holda: 11. Sumalak doni. 12. Otlar podasi. 13. Tok tupini ko'tarib turuvchi moslama. 14. Suvchi. 31. Alloma Umar Xayyomning bahor ayyomiga bag'ishlangan asari. 32. Sayillarda o'tkaziladigan so'z ustalari bahsi. 33. Bahorda ochiladigan qirmizi gulli daraxt.

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV



8

19-mart 2018

Tong yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sadullo TURSINOV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV
Fotomuxbir
Zubayda
HAMIDULLAYEVA

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop etildi.
Manzilmiz va bosmaxona
manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi – 74550
Buyurtma – V 1288

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilina-
di, mualliflarga qaytaril-
maydi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushan-
ba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti – 18:00
Topshirildi – 18:00
Tel./faks:
(99871) 244-63-08